

JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



# JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR*
*(DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar oyida)*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 606,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 110,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,8 % ni tashkil etdi.

| | | |
|---|---|---|
| 0,8% | B | Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash |
| 92,8% | C | Ishlab chiqaradigan sanoat |
| 5,2% | D | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash |
| 1,2% | E | Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar |
|---|---|---|
| B | 195,4 % | 75,8 % |
| C | 98,5 % | 111,4 % |
| D | 97,4 % | 133,4 % |
| E | 95,4 % | 74,9 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 111,4 % ga elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 33,4 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar**

**B**

| | | |
|---|---|---|
| 2022- yil | 4,9 mlrd. so‘m | 75,8 % |
| 2021- yil | 8,0 mlrd. so‘m | 195,4 % |
| 2020- yil | 8,7 mlrd. so‘m | 83,5 % |

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini tashkil etdi.*

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 2,0 % | 0,8 % |

**Yanvar**

## Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 428,9 | 1 083,3 | 154,2 |
| Sharof Rashidov tumani | 169,0 | 951,1 | 507,8 |
| Zomin tumani | 675,2 | 822,0 | 109,9 |
| Jizzax shahri | 371,8 | 759,1 | 124,6 |
| Zafarobod tumani | 1 051,2 | 864,8 | 50,2 |

*Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida viloyat jami hajmidagi eng yuqori fizik hajmi o‘sishining Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 507,8 % ni va G‘allaorol tumani 154,2 % ni, Jizzax shahri 124,6 % ni hamda Zomin tumani 109,9 % ni tashkil etdi.*

75,8 %

2022- yil

195,4 %

2021- yil

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 563,3 mlrd.so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,8 % ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar** 89,6 %

**2022-yil yanvar** 92,8 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni ( 2021- yilning yanvar oyida – 1,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 17,9 % ( 4,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 18,6 % ( 14,0 %) va quyi texnologiyalisi – 56,4 % ( 69,3 %)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,7 % ( 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 29,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,8 % ( 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 138,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 42,6 % ( 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 133,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,7 % ( 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,5 % ( 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 156,5 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*


















## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Paxta tolasi, t. | 8 368,0 | 5 303,0 | -3 065 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 5 252,0 | 5 218,4 | -33,6 |
| Paxta chigiti, t. | 13 010,0 | 8 379,0 | - 4 631,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 366,2 | 413,0 | 46,8 |
| Paxta linti, t. | 1 041,0 | 413,0 | -628,0 |
| Trikotaj polotnolar, t. | 306,0 | 137,0 | -169,0 |

*2022- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,2 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 0,6 % kamaygan), 5,3 ming tonna paxta tolasi ( 36,6 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 0,4 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i ( 12,8 % ga ) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.*

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**99,4 %**

**Paxta tolasi, t.**

**63,4 %**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 72,7 % ga tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 138,5 % o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 11,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 9,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 97,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 13,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,8 % ga o‘sish sur’atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 80,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 58,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 89,4 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar oyi yakun-lariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 40,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 76,0 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 38,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 38,4 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 233,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 112,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 25,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 273,8 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 86,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

2020- yil 120,7 %

2021- yil 273,8 %

2022- yil 86,7 %

## Elektr jihozlari ishlab chiqarish

2020- yil 92,5 %

2021- yil 108,9 %

2022- yil 50,0 %

*2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,9 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 50,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 16,6 % ga pasaygan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 162,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

2020- yil 56,2 %

2021- yil 83,4 %

2022- yil 162,5 %

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,2 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 33,4 % ga oshganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 10 602,6 | 9 407,2 | -1 195,4 |
| Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi),ming gkal | 3,5 | 1,1 | -2,4 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 17 920,3 | 21 886,4 | 3 966,1 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7,4 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m,** | 5 619,8 | 5 651,7 | 31,9 |
| **Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m** | 141,8 | 1 756,5 | 1 614,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 8,6 % ga pasayishi kuzatildi. Shuningdek chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 71,7 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 247,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 141,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 40,7 % ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar** **25,0%**

**2022-yil yanvar** **19,9%**

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar** **75,0%**

**2022-yil yanvar** **80,1%**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 19,9 % (2021- yil yanvar oylarida 25,0 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 18,1 % ni va Zarbdor tumani 14,3 % ni, Do'stlik tumani 15,5 % ni hamda Paxtakor tumani 11,3 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (102,6 %), Zarbdor tumanida (203,6 %), Paxtakor tumanida (126,9%) hamda G'allaorol tumanida (136,6 %), qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 17,9 % shuningdek, G‘allaorol tumani 37,7 %, ni, hamda Arnasoy tumani 10,3 % ni tashkil etdi.*




*138,1 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar*

*155,1 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar*

*247,0 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi



## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 17,9 % shuningdek, G‘allaorol tumani 44,9 %, Arnasoy tumani 11,5 % ni tashkil etdi.*

**94,3** mlrd. so‘m
*2020- yil yanvar*

**106,2** mlrd. so‘m
*2021- yil yanvar*

**197,8** mlrd. so‘m
*2022- yil yanvar*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 95,6 %

02 2021- yil 111,3 %

04 2022- yil 151,3 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 29,1 % ni, shuningdek, Do‘stlik tumani 13,4 % ni, Zarbdor tumani esa 9,9 % ni tashkil etdi.*




*43,8 mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar*

*48,9 mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar*

*49,2 mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 82,7 %

02 2021- yil 109,3 %

04 2022- yil 112,8 %

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 27,2 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 15,6 % ni, Zafarobod tumani esa 11,9 % ni tashkil etdi.*

### Jizzax viloyati

**2020- yil**
405,9 mlrd. so‘m

**2021- yil**
407,1 mlrd. so‘m

**2022- yil**
606,9 mlrd. so‘m



**2020- yil** 102,8 %

**2021- yil** 102,4 %

**2022- yil** 110,8 %



# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (901,3 ming so‘m), Zafarobod (1 414,2 ming so‘m) tumanida hamda Do‘stlik ( 1 320,2 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ( 425,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*

| | o‘sish sur’ati | ming. so‘m |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 108,4 | 425,3 |
| Jizzax shahar | 102,3 | 901,3 |
| Arnasoy | 59,7 | 572,6 |
| Baxmal | 104,0 | 38,5 |
| G‘allaorol | 201,9 | 535,6 |
| Sharof Rashidov | 92,8 | 107,0 |
| Do‘stlik | 113,3 | 1320,2 |
| Zomin | 95,0 | 105,1 |
| Zarbdor | 105,6 | 270,3 |
| Zafarobod | 163,7 | 1414,2 |
| Mirzacho‘l | 107,4 | 231,6 |
| Paxtakor | 108,5 | 745,3 |
| Forish | 102,6 | 151,3 |
| Yangiobod | 40,3 | 112,8 |

## Jizzax viloyati

2020- yil — 296,9 ming. so‘m

2021- yil — 291,6 ming. so‘m

2022- yil — 425,3 ming. so‘m



01 — 2020- yil — 103,6 %

02 — 2021- yil — 100,3 %

04 — 2022- yil — 108,4 %

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 790,1 ming so‘m bo‘lgani holda, Jizzax shahrida – 242,3 ming so‘mni, Arnasoy tumanida – 540,4 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida – 525,9 ming so‘mni tashkil etdi.*

**Jizzax viloyati**

**2020- yil** — 101,0 ming. so‘m

**2021- yil** — 111,1 ming. so‘m

**2022- yil** — 173,1 ming. so‘m



**2020- yil** — 89,2 %

**2021- yil** — 108,3 %

**2022- yil** — 138,6 %

| | o‘sish sur’ati | ming. so‘m |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 138,6 | 173,1 |
| Jizzax shahar | 98,3 | 242,3 |
| Arnasoy | 196,7 | 540,4 |
| Baxmal | 105,2 | 38,2 |
| G‘allaorol | 310,6 | 525,9 |
| Sharof Rashidov | 103,9 | 46,1 |
| Do‘stlik | 99,3 | 187,6 |
| Zomin | 98,5 | 43,9 |
| Zarbdor | 98,9 | 109,4 |
| Zafarobod | 98,4 | 91,5 |
| Mirzacho‘l | 98,3 | 80,6 |
| Paxtakor | 98,4 | 254,4 |
| Forish | 99,9 | 63,5 |
| Yangiobod | 36,3 | 112,8 |

2022- yil 1- fevral holatiga

## Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 3702 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1124 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 30,4 % i ) Jizzax shahriga, 676 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov tumaniga, 376 tasi ( 10,2 %) G‘allaorol tumaniga, 269 tasi ( 7,3 %) Zomin tumaniga va 187 tasi (5,1 %) Zarbdor tumaniga to‘gri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil — 34 dona

2021- yil — 821 dona

2022- yil — 62 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil — 2 821 dona

2021- yil — 3 492 dona

2022- yil — 3 702 dona